



Dildora MURATOVA,
Sarbo'n universiteti professor v.b, DSc
E-mail: muratovadildora959@gmail.com

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti professori F. Musayev taqrizi asosida

JAMIYAT EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda axborot texnologiyalari ta'lim, fan, iqtisodiyot, tibbiyot kabi sohalarda keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyat a'zolarining bilim darajasini oshirish, yangi ko'nikmalarni egallash va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga ahamiyatini asoslab bergan. Maqolada axborotlashtirish jarayoni odamlarning fikrlash tarzini o'zgartirib, ularning dunyoqarashini boyitmoqda va yangi imkoniyatlar eishigini ochishini belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, rivojlanish, zamonaviy, axborot texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar, sotsiomadaniy, axborot makoni, qayta ishlash.

THE IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL CULTURE IN SOCIETY

Annotation

The article notes that at present, information technologies are widely used in areas such as education, science, economy, and medicine. This, in turn, underscores their importance for increasing the knowledge level of members of society, acquiring new skills, and expanding opportunities for development. The article also emphasizes that the process of informatization changes the way people think, enriches their worldview, and opens doors to new opportunities.

Key words: society, development, modern, information technologies, social networks, sociocultural, information space, processing.

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье отмечается, что в настоящее время информационные технологии широко применяются в таких сферах, как образование, наука, экономика и медицина. Это, в свою очередь, обосновывает их значение для повышения уровня знаний членов общества, освоения новых навыков и расширения возможностей для развития. В статье также подчеркивается, что процесс информатизации изменяет образ мышления людей, обогащает их мировоззрение и открывает двери для новых возможностей.

Ключевые слова: общество, развитие, современный, информационные технологии, социальные сети, социокультурный, информационное пространство, переработка.

Kirish. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining barcha sohalarga jadal joriy etilishi natijasida sifat jihatidan yangi kommunikativ muhit shakllanmoqda. Bu muhit an'anaviy muloqot shakllaridan farq qilib, tezkorlik, qulaylik va keng qamrov imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Natijada insonlarning kundalik hayoti, o'zaro muloqoti, axborot almashish usullari va madaniy qadriyatlarini o'zgarib bormoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishiga o'tishi har bir a'zodan yangi bilim va ko'nikmalarni talab etmoqda.

Internet va raqamli texnologiyalar paydo bo'lishi bilan masofaviy ta'lim, onlayn mehnat faoliyati va global muloqot imkoniyatlari kengaydi. Axborotni uzatish kanallari (internet, OAV, ma'lumotlar bazalari) mazmun bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etib, uning aniqligi va ishonchligi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Texnik vositalar muloqotni ommaviylashtirib, ijtimoiy tarmoqlar va videokonferensiyalar orqali keng auditoriyaga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatish imkonini yaratdi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni axborotni strategik resurs sifatida qo'llashga asoslanadi va bu insoniyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Globallashtirish sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari global madaniy makonning shakllanishiga olib keldi. Turli xalqlarning madaniyatlari o'zaro ta'sirlashib,

integratsiyalashmoqda, shu bilan birga milliy o'zlikni saqlash masalasi ham dolzarblashmoqda.

Raqamlashtirish madaniyatning yangi shakllarini - virtual san'at, elektron adabiyot, onlayn muzey va ko'rgazmalarni yuzaga keltirdi. Raqamli arxivlar va elektron kutubxonalar madaniy merosni saqlash va ommalashtirishning samarali vositasiga aylandi. Shunday qilib, axborot texnologiyalari jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylanib, yangi imkoniyatlar bilan birga yangi mas'uliyat va vazifalarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi insonlararo munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Videokonferensiya, messengerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali real vaqt rejimida global muloqot imkoniyati yaratilishi geografik va vaqt chegaralarining ahamiyatini kamaytirdi. Virtual reallik va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar esa muloqotning innovatsion formatlarini shakllantirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar evolyutsiyasi natijasida virtual hamjamiyatlar paydo bo'ldi. Ular umumiy qiziqish va maqsadlar asosida birlashgan insonlarni integratsiyalab, transmilliy ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirmoqda. Bunday hamjamiyatlarda tajriba almashinuvi, ilmiy hamkorlik va xalqaro loyihalar samarali amalga oshirilmoqda. Masofaviy

kollaboratsiya texnologiyalari ilm-fan va madaniyat sohaslarida global integratsiyani kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, virtuallashuv ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda: bevosita muloqotning kamayishi, psixologik qaramlik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va dezinformatsiya xavfi dolzarblashmoqda. Bu esa axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar madaniy merosni saqlash va targ'ib etishda ham muhim vositaga aylandi. Elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar va onlayn platformalar milliy tillarni rivojlantirish, madaniy qadriyatlarni ommalashtirish hamda madaniyatlararo muloqotni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, zamonaviy raqamli muhit ijtimoiy munosabatlarni transformatsiya qilish bilan birga, milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Madaniy merosni raqamlashtirish jamiyatning madaniy xotirasini saqlash va tiklashning muhim vositasiga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilayotgan virtual madaniy makon moddiy va nomoddiy merosni saqlash, tadqiq etish hamda ommalashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yosh avlodning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda fan va texnologiyalar qadriyatlar bilan uzviy rivojlanib, ekologik muvozanatni saqlash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Globallashtirish sharoitida moddiy resurslardan ko'ra bilim, axborot, nou-xau va intellektual salohiyat ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun jamiyat kelajagi fan yutuqlari va ularning amaliy qo'llanilish darajasiga chambarchas bog'liq.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda ham axborot texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Raqamli vositalar orqali ekologik ta'lim samaradorligi oshmoqda, xalqaro tajriba almashinuvi kuchaymoqda va ekologik monitoring tizimlari takomillashmoqda. Bu jarayonlar jamiyatda tabiatga mas'uliyatli munosabatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yapon olimi Yonedzi Masuda ta'kidlaganidek, axborot jamiyatida ishlab chiqarish bilan bir qatorda turmush tarzi va qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Bugungi kunda bilim, ma'naviy boylik va ijodiy faoliyat moddiy resurslarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-madaniy transformatsiyani ham jadallashtirib, yangi hayot tarzi va yangi qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda.

Rossiyalik mutaxassis Yu.Grishayeva zamonaviy axborot jamiyatida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Bu masala nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Uning ta'kidlashicha, "axborot oqimlari bugungi kunda global xarakterga ega bo'lib, zamonaviy inson va umuman jamiyatning ijtimoiy hayotining barcha sohaslariga kiritilgan"[1]. Bu jarayon insonning kundalik hayotidan tortib, uning kasbiy faoliyati va ta'lim olishigacha bo'lgan barcha sohalarni qamrab oladi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi va uning mohiyati haqida gap ketganda, bu jamiyatning asosiy xususiyatlarini tushunib olish muhim. Bu masala nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan birini belgilaydi. Axborotlashgan jamiyat - bu bilim va ma'lumotlarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilishga asoslangan jamiyatdir. Bu jarayonlar jamiyatning barcha sohaslarini qamrab oladi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

"Axborotlashgan jamiyati sifatli ma'lumotlarning ko'pligi va uni tarqatish vositalari bilan ajralib turadi, deb ta'kidlaydi, G.Gaffarova va A.Abdullayevlar. - Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish jara'ening samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish jara'eni bilan bog'liq edi. Axborotlashgan jamiyat, asosan, sanoat tuzilishidan farq qiladigan yangi ijtimoiy tuzilma sifatida ta'riflanadi. Muammoning ushbu ko'rinishi uning tarafdorlari va muxoliflariga ega, ular zamonaviy jamiyatda axborotning ahamiyati aniq oshganligini tan olsalar ham, axborotlashtirishni yangi turdagi jamiyatni tashkil etish vositasi deb bilishmaydi. Ularning fikriga ko'ra, axborot jara'eni faqat mavjud bo'lgan tizimni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari e'rdamida birlashtirish va mustahkamlashga olib keladi"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda jamiyat ekologik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslandi. Bugungi kunda axborotlashtirish bilan bog'liq jarayonlar ijtimoiy ekologiyaning yetakchi kategoriyalariga aylanmoqda. Bu jarayonlar nafaqat texnik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega bo'lib, jamiyatning barcha sohaslariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotlashtirish jarayonlari inson hayotining barcha jabhalariga kirib borgan bo'lib, uning kundalik faoliyatidan tortib, kasbiy va ijtimoiy munosabatlrigacha bo'lgan barcha sohalarni qamrab olmoqda. Axborotlashtirishning o'zi esa zamonaviy insonning antroposotsioekotizimdagi hayot faoliyatining ajralmas jarayoniga aylangan. Bu holat insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu munosabatlar tobora murakkablashib, ko'p qirrali xarakter kasb etmoqda.

Bundan kelib chiqib, ekologik madaniyatni yangi axborot-ekologik formatda shakllantirish zarurati tug'ilmogda. Bu zarurat zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalari va insonning axborot muhitidagi faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy sharoitda ekologik madaniyat shaxsning nafaqat tabiat bilan munosabatlarini, balki butun axborot-ekologik makondagi faoliyatini ham qamrab olishi kerak. Bunda shaxs tomonidan tashqaridan olinadigan katta hajmdagi axborotni individual eko-madaniy moslashtirish mexanizmlarini hisobga olish kerak. Bu mexanizmlar shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini, uning axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatlarini inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim. Bunday yondashuv har bir insonning individual rivojlanish yo'lini ta'minlaydi.

Ayniqsa, katta shaharlarda insonlar juda ko'p madaniy aloqalar (voqealar)ga jalb qilingan bo'lib, bu aloqalar qisqa vaqt oralig'ida va ham real, ham virtual makonda juda "zich" joylashgan. Bu holat zamonaviy insonning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Insonlar bir vaqtning o'zida turli madaniy muhitlarda ishtirok etishi, turli axborot oqimlarini qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Mazkur dissertatsion tadqiqot davomida jamiyat ekologik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'lishi haqida xulosaga kelindi.

Birinchiidan, zamonaviy axborot texnologiyalari ekologik ma'lumotlarni tarqatish va ekologik ma'rifatni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jamiyatning ekologik madaniyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham ekologik ta'lim va ma'rifatni rivojlantirish, aholining ekologik madaniyatini

yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.05.2019-yildagi 434-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga binoan ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi "o'sib kelayotgan yosh avlodga ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan"[3] iborat.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar orqali ekologik ma'lumotlarni keng ommaga yetkazish imkoniyati yaratilmoqda. Facebook, Instagram, Telegram kabi platformalarda maxsus ekologik guruhlar va kanallar faoliyat yuritmoqda, ular orqali atrof-muhit muhofazasi, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi dolzarb masalalar bo'yicha ma'lumotlar uzluksiz ravishda tarqatilmogda. Ekologik tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari esa jamoatchilikni ekologik vaziyat, muammolar va ularning yechimlari haqida xabardor qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, interaktiv xaritalar va ma'lumotlar bazalari orqali atrof-muhit holati haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilgan.

Onlayn ta'lim platformalari orqali ekologik bilimlarni oshirish yo'nalishida ham sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Coursera, edX, Udemy kabi global ta'lim platformalarida ekologiya bo'yicha onlayn kurslar, shuningdek, milliy onlayn

ta'lim platformalarida ekologik yo'nalishdagi o'quv materiallari joylashtirilmoqda. Interaktiv o'quv dasturlari, virtual laboratoriyalar, video-darslar va podkastlar orqali aholining turli qatlamlari uchun ekologik ta'lim imkoniyatlari kengaymoqda. Onlayn viktorinalar va o'yinlar esa ekologik bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Multimedia vositalari yordamida atrof-muhit muammolarini vizuallashtirishda innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. 3D modellashtirish, VR/AR texnologiyalari ekologik jarayonlarni ko'rgazmali namoyish etish imkonini bermoqda. Infografika, animatsiya va videoroliklar murakkab ekologik tushunchalarni sodda shaklda yetkazishga xizmat qilmoqda. Interaktiv vizualizatsiya vositalari esa ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish va taqdim etishda samaradorlikni oshirmoqda.

Mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi platformalar orqali atrof-muhit holatini monitoring qilish, foydalanuv-chilarga moslashtirilgan ekologik kontent taqdim etish va maslahatlar berish yo'lga qo'yilgan. Kraudsorsing va blokcheyn texnologiyalari ekologik loyihalarda shaffoflikni ta'minlash hamda muammolarni aniqlashda muhim vositaga aylanoqda.

Ijtimoiy media kampaniyalari va onlayn jamoalar ekologik mas'uliyatni shakllantirish, fuqarolik fanini rivojlantirish hamda ekologik tadbirlarni muvofiqlashtirishda samarali platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar jamiyat ekologik madaniyatini yuksaltirish va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni mustahkamlashga yordam bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Grishayeva Yu. Ekologicheskaya kultura v usloviyakh informatsionnogo obshchestva. – Moskva: Nauka, 2016.
2. Gaffarova G., Abdullayev A. Axborotlashgan jamiyat nazariy asoslari va rivojlanish tendensiyalari // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 2018. – №3. – B. 45–52.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
4. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Washington: World Future Society, 1983.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook – GEO-6. – Nairobi: UNEP, 2019.
8. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
9. Abdulmajidova H., Qamariddinzoda F. Globallashtirish va axborot-kompyuter sivilizatsiyasi masalalari // Falsafa va huquq. – 2020. – №2. – B. 33–39.
10. Rasulova Sh. Ekologik ta'lim va global ekologik tarbiya tizimi muammolari // Pedagogika va psixologiya. – 2021. – №4. – B. 60–66.